



PIRIMQUL QODIROV ASARLARIDA INSON OBRAZI TALQINI

Jo'rayeva Nargiza Tilovmurodovna

Termiz davlat universiteti akademik litseyi

Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada xalq yozuvchisi Pirimqul Qodirovning asarlarida inson obrazini badiiy gavdalantirish va talqini, ularni adabiyot darklarida shaxsiyatini tasvirlash borasida ilmiy-nazariy fikr va tafsilotlar bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *roman, adabiyot, shaxs, Humoyun va Akbar, Boburiylar, badiiy adabiyot.*

Badiiy adabiyot inson obrazi talqini badiiylkning asosiy ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, u asarga jon ato etadi. Adabiy tahlil muallifning uslubini, tasvirda o'ziga xosligini va badiiy mahoratini belgilaydi. Adabiyotning kamoloti, uning buyukligi, eng avvalo, ruhiyat tahlilidek badiiy-estetik hodisaning qay darajada kashf etilganligi bilan, inson ruhi, inson qalbi dialektikasining qay darajada ochilganligi bilan belgilanadi. Badiiy asarda tahlil tamoyillari va shakllari turli-tuman bo'lgani kabi, uning poetik vositalari ham xilma-xildir. Adabiyotshunoslar tomonidan badiiy tahlil poetik vositalarining o'ndan ortiq turlari qayd qilingan bo'lib, ularga portret, dialog, monolog, tush, peysaj, badiiy detal, hissiy harakatalar (mimika va pantomimika), nutqiy xarakteristika, gallyusinatsiya kabilarni kiritish mumkin. Ushbu vositalarning har biri badiiy asar qahramonlarining muayyan makon va zamondagi ichki dunyosining yashirin qirralarini o'quvchiga tanishtirishda yozuvchiga qo'l keladi.

Badiiy tahlil poetik vositalarining badiiy adabiyotga kirib kelishi o'z tadrijiga ega. Ularning ba'zilari sof ruhiy hodisa sifatida badiiy adabiyotda azaldan mavjud bo'lsa, ayrimlari ruhiyat bilan unchalik bog'liq bo'lmagan yoki umuman undan yiroq hodisalar sifatida so'z san'atiga nisbatan keyingi davrlarda kirib kelgan. Asardan o'rin egallagan har bir poetik vositaga muallif muayyan badiiy vazifani yuklaydi. Ushbu badiiy yuklama bevosita yoki bilvosita qahramonlar ichki dunyosini ochishga xizmat qiladi. O'zbekiston xalq yozuvchisi Pirimqul Qodirov iste'dodli so'z san'atkoridir. Yozuvchining ruhiy tahlilga boy tarixiy romanlari bizning shunday xulosa chiqarishimizga asos bo'ladi. Xususan, yozuvchi o'zining "Humoyun va Akbar" romanida qahramonlar ruhiyatida kechayotgan turfa tovlanishlarni asoslashda yuqoridagi poetik vositalardan unumli va o'rinli foydalanadi. Ushbu san'at asarda adibning ruhiy tahlil san'atidan foydalanish mahorati butun jozibasi va nazokati bilan o'z aksini topgan.

Badiiy asarda qahramonlar portreti o'ziga xos badiiy, g'oyaviy vazifa bajaradi. Portret yaratishda har bir yozuvchi o'ziga xos yo'ldan boradi. Lekin ular qay yo'ldan bormasinlar, portret asar g'oyasiga, qahramonlar xarakteriga bog'liq bo'lishi muhimdir. Badiiy asarda portretning asosiy vazifasi personajlarning qiyofasini



yaratishdir. Lekin portret tushunchasini faqat qahramonlarning tashqi qiyofasi tasviri bilan cheklab bo'lmaydi. Chinakam so'z ustalari hamisha tashqi qiyofa orqali qahramonlarning ma'naviy, ruhiy olamiga kirishga intiladilar. Demak, portret – ruhiy tasvir vositalaridan biri bo'lib, u badiiy asarda psixologizatsiyalashadi va shundagina badiiy qimmat kasb etadi.

Primqul Qodirov ham yozuvchi sifatida portret san'atidan qahramonlarning ichki olamini yoritishda vosita sifatida foydalanadi. Yozuvchi, aksariyat hollarda, asar qahramonlarining tashqi qiyofasiga xos chizgilarni birdaniga bermaydi, balki butun asar davomida g'oyatda qisqa-qisqa tasvirlab boradi, ya'ni portretni bo'laklarga ajratib tasvirlaydi. Buning o'ziga yarasha afzalliklari bor. Chunki bir o'rindayoq tugal tasvirlangan portretda personajlarning ichki hayoti mukammal ifodasini topmasligi mumkin. Yozuvchi portret yaratishda qahramonning ichki olaminibirinchi planga qo'yadi. U dastlab qahramonlardagi ruhiy tovlanishlarni izlaydi va buning tashqi qiyofadagi aksini kitobxonga etkazadi.

Ichki monolog "qalb dilektikasi" – ruhiy tahlil formasining muhim poetik vositasi hisoblanadi. Ushbu vosita yozuvchiga asar qahramonlari ichki olamini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Ichki monolog – qahramonning o'z-o'zi bilan ichdan gaplashishi, fikrlashi, tafakkur va tuyg'ularining ichki ifodasidir. Ichki monologda yozuvchi asar qahramonlarini o'z tillaridan sirli, yashirin fikrlarini oshkor qilish orqali kitobxonning asar voqealar rivojini tushunishiga yordam beradi. Asar syujetiga mahorat bilan singdirilgan ichki monologlar kitobxonlarga qahramonlar qalb eshigini ochishlari uchun kalit vazifasini o'tab beradi. Shu tariqa ichki monologlar asardagi dialoqlardan o'zining ochiq va oshkoraligi bilan ajralib turadi. Odatda, yozuvchilar ichki monologdan asar qahramonlari hayotidagi eng keskin va ziddiyatli, dramatik vaziyatlarda foydalanadilar. Chunki shunday vaziyatdagi his-tuyg'ular va fikrlar qahramonning asl ruhiy qiyofasini to'liq va yorqin aks ettiradi.

Pirimqul Qodirov ham o'zining "Humoyun va Akbar" romanida ichki monologlardan asar syujetida dinamikani, syujet voqelarining qiziqarli bo'lishini ta'minlash va asar qahramonlarining yashirin fikr-mulohazalarini kitobxonga ma'lum qilish maqsadida foydalanadi. Yozuvchi ichki monologning turli shakl va ko'rinishlaridan foydalanadi. Bu ba'zan oniy fikr bo'lishi, ba'zan kuchli bir his yoki lirik hayajon natijasi bo'lishi ham mumkin. Asarda ba'zan shunday ichki monologlar uchraydiki, uning bir qismi qahramon nutqida, bir qismi esa muallif nutqida bayon qilinadi. Bu borada Nizomning otasi nohaq qamalganini eshitgan Hamida bonuning quyidagi ichki monologi diqqatga sazovor: *"Balki men... hazratning (Humoyunning) inoyatiga sazovor bo'lsam "Nizomning begunoh otasini hibsdan chiqartiring" deb iltimos qilarmidim"*. Hamida bonuning ko'nglidagi qolgan gaplar muallif nutqida izoh va sharhlar bilan quyidagicha bayon qilinadi: *"Lekin qiz bola bunday iltimosni qilishi uchun Humoyunga qay darajada yaqin bo'lishi kerak. Unga yaqin borish Nizomdan uzoqlashish emasmi? Biroq Hamida bu yigitdan uzoqlashgisi kelmaydi, ko'ngil unga qarab talpinadi. Etti yashar qizaloq paytida mana shu daryoning sokin qo'ltig'ida Nizom uni suzishga*



o'rgatgani hech esidan chiqmaydi. Ikkovi suvda birga suzgan o'sha damlar zavqi hozir daryo to'lqinlari orasidan unga ko'z tikib turganday".

Asarda yana monologning shunday shakllari ham borki, ular asrning bir nechta joylariga sochilib ketgan va ular birgalikda bir butunlikni hosil qiladi. Bunday monologlar orasida muallif shu monologga sabab bo'lgan voqealarni izohlaydi, ayrim hodisalardan kitobxonni ogoh qiladi. Bu borada Xonzodabegimning ichki monologi alohida e'tiborga molik. Asarning boshida Xonzodabegim qizlarning chavgon o'yinini tomosha qilar ekan, unda xavotir tuyg'usi kechadi. Uning miyasidagi oniy fikrni yozuvchi ichki monologda shunday ifodalaydi: *"... biron kor-hol bo'lmasin tag'in"*. Yozuvchi bu xavotir tuyg'usining sababini keyinroq yana ichki monolog orqali oydinlashtiradi. *"Axir bu qizlar eng nufuzli beku a'yonlarning oilasidan. Agar birontasining yuz-ko'ziga chavgoncho'p tegib yarador qilsa, chandiq qoldirsa yoki birontasi otdan yiqilib, tuyoq tagida ezilsa mutaassib shayxlar yana fisqu-fasodni kuchaytiradi. Ular qizlarning doim parda ichida – uy asirasi bo'lib o'ltirishini talab qiladilar..."*

Ushbu ichki monologlar bir-biri bilan bevosita bog'liq va biri-birini to'ldiradi. Ularda Xonzodabegimning o'z jiyani Humoyunga bo'lgan ulkan mehr-muhabbati, xayrixohligi o'z ifodasini topgan. Xonzodabegimning ko'nglidan o'tgan ushbu gaplar uning Humoyun Mirzoga eng yaqin odam ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, monologda mutaassib shayxlarning fisqu fasodlaridan to'ygan qalb kechinmalari tasvirlangan.

"Humoyun va Akbar" romanida qahramonlar qiyofasidagi eng kichik shtrixlar ham juda nozik psixologik yuk tashiydi. Tashqi ko'rinishning har bir detali qahramonlar ichki dunyosi bilan uzviy bog'lanadi. Fikrimizni asoslash uchun misollar keltiramiz. Bobur hukmronligi davrida Moskvaga elchi qilib yuborilgan Xo'ja Husayn ko'p azob-uqubatlar ko'radi. U boshidan kechirgan qiyinchiliklarni Humoyun Mirzoga so'zlar ekan, uning ruhiy holati qisqa tasvirlarda shunday tasvirlanadi: *"Xo'ja Husayn bir uh tortdi-yu, boshini xam qilib davom etdi"*. Ushbu tasvirda Xo'ja Husaynning ko'p qiynalgani uning "uh" tortishida ifodalanayotgan bo'lsa, boshini xam qilib turishida esa uning elchilik vazifasini muvaffaqiyatli bajarib kelolmaganidan xijolat bo'layotganini anglash mumkin. Nizom taxtga o'tirgach, Hindol bilan Alvarga ketgan Hamida bonuga xat yozadi va uni Afzalbekdan jo'natmoqchi bo'ladi. Afzalbekka xat bilan birga yo'l xarajatlari va xizmat haqi uchun oltin to'la hamyon uzatadi. Afzalbekning shu paytdagi holatini yozuvchi shunday tasvirlaydi: *"Afzalbek hamyonni ta'zim bilan oldi-yu, tabarruk qilib ko'ziga surd va tez qqo'yniga soldi"*. Ushbu tasvirda Afzalbek tabiatidagi ba'zi xususiyatlar uning xatti-harakatida o'z ifodasini topgan. Afzalbekning hamyonni ta'zim bilan olishi uning xushomadgo'yligini, soxta hurmatini ko'rsatsa, hamyonni ko'ziga surishi esa uning tilyog'lamalik qilayotganini, tez qo'yniga solishi esa uning ochko'zligini fosh qilgan.

Ma'lumki, qahramonlar og'ir ruhiy, dramatik va ba'zan tragik holatlardagina o'z ahvol-ruhiyati va kechinmalarini ichdan tahlil qiladilar. YOzuvchi ichki monologga



murojaat etar ekan, avvalo, qahramonning xuddi shunday murakkab, iztirobli ahvoli tasvirini beradi va uni shunday holatga tushishga majbur qilgan qiyin sharoit va vaziyatlarni keltiradi. Chunki xuddi shunday vaziyatlarda qahramonlar o'z ruhiy olamlarini, o'zligini mufassal ochadi, o'z ahvol-ruhiyatining qanday ekanligini faqat o'ziga ayta oladi, xolos. Bu jihatdan Humoyunning quyidagi monologi xarakterli. Unda Komronning o'zini hibis qilish to'g'risidagi farmoni chiqqanligini eshitgan Humoyunning holati aks etgan: *“Oddiy odam bo'lsang eding, bir sholchanning ustiga ham sig'ar eding, - degan o'y ko'nglidan o'tdi. - Hamma balo sening podsholigingda. Qandahorda xutbani Komronning nomiga o'qitish shunchalik qiyin bo'lgani – sening tirik yurganing tufaylidir. Said Xalilu Afzalbeklar o'z maqsadlari yo'lida hech qanday razolatdan qaytmasligini Agrada Amir Bahlul bilan Nizomning boshiga tushgan falokatlarda ko'rgan eding-ku.”*

Ushbu monologning yana bir o'ziga xos xususiyati uning 2-shaxs tilidan bayon qilinishi bo'lib, unda qahramon o'z-o'ziga emas, go'yo unga boshqa birov, butunlay begona shaxs ta'na qilayotganday bo'ladi. Romandagi bu kabi ichki dialog ko'rinishidagi monologlar qahramonning o'zini tahlil qilishda ob'ektivlikni ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Pirimqul Qodirov, “Humoyun va Akbar”. - T.: “SHarq”, 1997.
- 2 Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2004.
- Rasulov A. Badiiylik – bezavol yangilik. – T.: “SHarq”. 2007.

